


YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabrida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 21 434,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,1 % ga yetdi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi
va o'sish sur'atlari**

| | | <i>Mlrd. so'm</i> | | <i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i> |
|--|----------------|-------------------|------------------|--|
| | | <i>2020- yil</i> | <i>2021- yil</i> | |
| | I. YAHM | 17 418,8 | 21 434,8 | 107,4 |

shu jumladan:


| | | | | |
|--|---|-----------------|-----------------|--------------|
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 16 964,9 | 20 924,1 | 107,4 |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 453,9 | 510,7 | 108,2 |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 16 964,9 | 20 924,1 | 107,4 |
| | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 8 175,6 | 10 168,8 | 106,1 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 2 579,8 | 3 288,0 | 108,4 |

| | | Mlrd. soʻm | | Oʼsish surʼatlari, oʼtgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|------------------|--|----------------|----------------|---|
| | | 2020- yil | 2021- yil | |
| | sanoat | 1 089,7 | 1 515,0 | 107,5 |
| | qurilish | 1 490,1 | 1 773,0 | 109,1 |
| Xizmatlar | | 6 209,5 | 7 467,3 | 108,6 |
| | savdo, yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlar | 1 421,7 | 1 708,8 | 107,9 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 697,6 | 908,1 | 119,8 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 4 090,2 | 4 850,4 | 107,0 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 928,8 ming soʻnni tashkil etdi va bu koʼrsatkich oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga yuqoridir.




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʼsish surʼatlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 48,6 % ni, sanoat tarmog'i 7,2 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 35,7 % ni tashkil qildi.

| | | 2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da) | 2020- yil | 2021- yil |
|----------------------|---|--|------------------|------------------|
| | I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 | |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 97,4 | 97,6 | |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 2,6 | 2,4 | |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 | |
| | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 48,2 | 48,6 | |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 15,2 | 15,7 | |
| | sanoat | 6,4 | 7,2 | |
| | qurilish | 8,8 | 8,5 | |
| Xizmatlar | | 36,6 | 35,7 | |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 8,4 | 8,2 | |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 4,1 | 4,3 | |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 24,1 | 23,2 | |




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil




2021- yil





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobilij o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 106,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 48,6 %), sanoatda – 107,5 % (7,2 %), qurilishda – 109,1 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 108,6 % ni (35,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,9 % (8,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 119,8 % (4,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,0 % dan (23,2 %) iborat bo'ldi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**






YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,9 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,5 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,4 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida salbiy – 0,2 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida – 129,4 % hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 117,2 % qayd etildi.



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 78,1 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 78,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.